



SOVET HUKUMATINING YANGI YERLARNI O‘ZLASHTIRISH SIYOSATI XUSUSIDA

Gadoyev Maxmud

JDPU II-bosqich magistranti

A.S.Majidov

Ilmiy rahbar

JDPU tarix fakulteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8016189>

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng birinchi navbatda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning tabiiy holatini yaxshilash masalalari belgilangan muhim dastur va rejalar asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 24 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigasiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida aholining suvni muhofaza qilish, suv resurslaridan samarali va tejimli foydalanishni tashkil etish masalalari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigasiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi suv resurslarini boshqarish, undan unumli foydalanish va tizimga samarali mexanizmlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh etish va suvni iqtisod qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda O‘zbekiston oldida turgan, hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalardan yana biri-suv resurslari taqchilligi, atrof-muhit va atmosferaning ifloslanishi, tuproq qatlamining yemirilishi va cho‘llanish muammolari bilan bog‘liq.

Global iqlim o‘zgarishi ta’sirining keskinlashuvi jahon mamlakatlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik suv ta’minoti darajasini pasaytira boshladi. Shu boisdan barcha mamlakatlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda ham mazkur masala dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shuni inobatga olgan holda, suv





resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari davlatning mudom diqqat-markazida bo'lib kelmoqda"¹.

Ko'p ming yillik tariximiz shundan dalolat beradiki, ota-bobolarimiz azal-azaldan yerni, suvni, o'simliklarni, hayvonlarni qadriga yetgan, ularni rizq-ro'z manbalari deb bilishgan, ularga nisbatan nojo'ya harakatni qoralashgan, diniy ma'noda gunoh, uvol sanashgan. Har qanday moddiy ne'matdan isrofgarchilik bilan foydalanish, tabiat resurslari-yer osti boyliklari, suv, yer, o'simlik va hayvonlarni nest-nobud qilish uvol va gunoh hisoblanib kelingan².

Binobarin, "uvol" tushunchasi tor ma'noda non, suv, o'tdan tejab-tergab foydalanishni ifoda etsa, keng ma'noda butun tabiat boyliklaridan, noz-ne'matlaridan oqilona foydalanishni aks ettiradi. Chunonchi, suvni isrof qilish, mevali daraxtlarni kesish, yovvoyi hayvonlarni nobud qilish kabilar ham uvoldir³. Bu so'zlarning isboti buyuk tariximizning ajralmas qismi hisoblangan "Avesto" kitobida ham o'z aksini topgan.

Ko'hna tariximizning muayyan davrlarida yashab o'troq hayot kechirgan Turonzamin, turkistonlik ajdodlarimiz tomonidan aytib qoldirilgan obi-hayot haqidagi rivoyatlar, hikmatnomalar hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini to'laligicha saqlab kelmoqda. Bobolar hikmatlari quyidagilardan iborat: "Suv-oltindan aziz", "Suv-zar, suvchi-zargar", "Suv keldi-nur keldi", "Suvning qatrasioftobning zarrasi", "Suv-yorug'lik", "Elning hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan", "Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas", "Suv yil oqar, olamga gul taqar", "Suv taralar tuproqqa, oro berar yaproqqa"⁴.

XXI-asrga kelib O'zbekistondagi cho'l hududlar suv tanqisligining oldini olish borasida bir qator tadqiqotlar ishlari amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan tashkil etilib kelinmoqda.

O'zbekistonda sug'orish tarmoqlarida suv yetkazib berish va ta'minlashdagi yo'qotishlar 40 foiz deb baholanmoqda, chunki sug'orish tarmoqlarining 70 foizi antiinfiltrasion va beton qoplamaga ega emas⁵. Bu muammo mamlakatda mavjud irrigasiya tizimlarini qayta ta'mirlash va modernizasiya qilish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda ular yordamida innovasion texnologiyalarni joriy etish va ularni amalda qo'llash zaruratini tug'dirmoqda.


¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: "Ўзбекистон", 2021.

² Сув ва ундан оқилона фойдаланиш: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-амалий конференцияси тезис ва мақолалар тўплами. 18 август 2022 йил. Т.: "Fan ziyosi", 26-б.

³ Ж.Холмўминов. Экология ва қонун. Т.: "Адолат", 2003, 30-б.

⁴ Ш.Шомақсудов., Ш.Шораҳмедов. Ҳикматлар. Т., Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси. 1990, 376-б.

⁵ Сув ва ундан оқилона фойдаланиш: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-амалий конференцияси тезис ва мақолалар тўплами. 18 август 2022 йил. Т.: "Fan ziyosi", 26-б.





Tahlillarga qaraydigan bo'lsak, 1960-2014-yillardagi chuchuk suv iste'molini baholash ko'rsatkichlariga ko'ra, jami chuchuk suv sarfining 70 foizi qishloq xo'jaligi va chorvachilik sektorlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shundan qishloq xo'jaligi yerlarining 20 foizi sug'oriladigan yerlar bo'lib, bu yerlarda jami oziq-ovqat mahsuloti hajmining 40 foizi ishlab chiqarilgan⁶.

O'zbekiston Respublikasining tabiiy-ekologik sharoiti bu hududning 10% maydonida sug'orma dehqonchilik olib borish imkoni borligini ko'rsatadi. Qolgan hududlarining asosiy qismini cho'l, dasht va tog' oldi adir mintaqalari tashkil etadi. Shuning uchun bu joylarni o'zlashtirish uchun zamonaviy sun'iy sug'orish tizimi va irrigasiya inshootlarini barpo etish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Markaz tomonidan O'zbekistondagi asosiy vazifalardan biri sifatida paxta ekin maydonlari hajmini urushdan avvalgi darajaga yetkazish, sug'orish zonalaridagi yerlar holatini yaxshilash va yangi yerlarni jadal o'zlashtirish belgilab berildi. Shundan kelib chiqqan holda, 1947-1950 yillarda yerlarni meliorasiyalash bo'yicha aniq rejalar tuzildi, kerakli texnika va transportlar ajratildi hamda mutaxassislariga moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatildi.

1948 yil 27 iyulda Kirov kanali boshqarmasi boshlig'i huzurida respublikalararo texnik kengash o'tkazildi. Kengashda kanallardagi suvlarning isrof bo'lishiga qarshi kurash ishini yaxshilash bo'yicha ko'plab takliflar kiritildi. Bu kabi takliflar ma'qullandi va amalga oshirish uchun tavsiya etildi. Yangi yerlarni jadal o'zlashtirish ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarar, bu esa aholini faol tarzda cho'l hududlariga ko'chirishni taqozo etar edi. Shundan kelib chiqib, 1948 yil yozida Markaziy Farg'onadan Mirzacho'l va Sirdaryo rayonlariga majburiy sur'atda 6447 xo'jalik, Buxoro viloyatining Shofrikon, Qorako'l, G'ijduvon va boshqa tumanlaridan 200 dan ko'proq yosh oilalar ko'chirib keltirildi⁷.

1949 yil O'zbekiston SSR Komsomol Qo'mitasi yoshlarni Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish ishlarida faol ishtirok etishga chaqirdi. Qisqa vaqt davomida Mirzacho'lni o'zlashtirish uchun 10 mingdan ortiq yoshlar ko'chirib kelindi⁸. 1950 yil 1 yanvaridan Mirzacho'lga respublikamizning eski zonalaridan 8594 xo'jalik ko'chirma qilindi. Rejali ko'chirilish asosida boshqa viloyatlardan

⁶ Сув ва ундан оқилона фойдаланиш: муаммо ва ечимлар // Республика илмий-амалий конференцияси тезис ва мақолалар тўплами. 18 август 2022 йил. Т.: "Fan ziyosi", 19-б.

⁷ "Правда Востока". 6 февраля 1949 г.

⁸ Абдуллаев Р. Боевой помощник партии. "Коммунист Узбекистана", 1968, №10, стр. 7.





kelgan kishilarga ekin ekish uchun keng maydonlar berildi.

1957 yilda Mirzacho'lga 12 mingdan ortiq turli viloyatlardan ko'chma xo'jaliklar kelib o'rnashib, cho'ldagi o'z mehnat faoliyatini boshlab yubordilar. Ko'chirish siyosati faol amalga oshirilgan hududlardan biri Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hisoblanadi. Samarqand viloyatining Bulung'ur, Zomin, Forish, Nurota tumanlaridan, Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidan reja asosida aholi ko'chirib keltirildi. Bu esa sovet hukumatining Mirzacho'lni o'zlashtirishda O'zbekistonning turli aholisi zich hududlaridan ularni majburiy ravishda ko'chirganligidan dalolat beradi.

1962 yilning oxirlarida hududda 34 ta sovxoz ochilishi kerak edi. Natijada, ulardan 23 tasi Mirzacho'lning O'zbekiston qismida, yana 2 tasi esa Qozog'iston qismida ochildi. 1962 yilga kelib 181,0 ming gektar yerlarga paxta ekilib, uning har gektaridan 12 syentnerdan paxta hosili olinadi. Yetishtirilgan hosilning katta qismini "Golodnostepstroy" Mirzacho'l qurilishi bosh boshqarmasiga qarashli xo'jaliklar ulushiga to'g'ri keldi. Yangi tashkil topgan xo'jaliklar shu yili davlatga 32 ming tonnadan ortiqroq paxta yetkazib berdilar. Bir yil o'tgach, 1963 yilning fevral oyida Sirdaryo viloyati tashkil etilganligi ham respublika tarixida muhim voqea edi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hukumat tomonidan Mirzacho'lda ko'chirib keltirilgan aholi uchun shart-sharoitlarni yaratish, ularning o'troq bo'lib qolishi uchun barcha ichki imkoniyatlarni ishga solishga harakat qilindi. Shuningdek, cho'lquvarlarga va ularning oila a'zolariga zamon talabidagi maktablar, savdo tashkilotlari, hammom va bolalar bog'chalari, aloqa uylari va hk.lar qurib berilsada, bir qancha muammolar, yetishmovchiliklar va kamchiliklar bartaraf etilmadi. Paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida Mirzacho'l, Sherobod cho'li, Qarshi cho'li va Markaziy Farg'ona o'zlashtirilib, O'zbekistonning tog'oldi hududlarida etnografik guruhlar sifatida istiqomat qilib kelayotgan yarim ko'chmanchi, yarim o'troq turkiygo'y chorvadorlarni cho'l hududlariga ko'chirib keltirildi⁹. Bu siyosat ham o'z navbatida, tog'lik etnografik guruhlarini o'troqlashish jarayonini tezlashtirishga, oqibat natijada, ularni o'zbek xalqi tarkibiga singib ketishiga olib keldi.

Yarim o'troq, yarim ko'chmanchi hayot kechirib kelayotgan aholining yangi yerlar, xususan Mirzacho'lga ko'chirilishi, yangi kolxoz va sovxozlarning tashkil etilishi, ularni ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan O'zbekistonning ilg'or viloyat va tumanlari darajasiga ko'tardi. Natijada, voha va tog'li hudud aholisi o'rtasida hududiy jihatdan cheklanish bartaraf qilinib, butun bir o'zbek eli yagona millat

⁹ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: "О'ZBEKISTON", 2019. 527-б.





bo'lib birlashdi¹⁰.

1952-1958 yillarda kollektor-drenaj tizimlarining qayta qurilishi va takomillashuvi natijasida Mirzacho'lda sug'orma yerlar holati ancha yaxshilandi¹¹. 1953-1954 yillarda Mirzacho'lning tuproqlar xaritasi tuzib chiqildi. Bu esa tuproqlarning holatini aniqlash va yerlarni sug'orishda bosh sxema va loyiha topshiriqlarini asoslab berishga imkoniyat yaratdi¹².

Yuqorida ta'kidlanganidek, 60-yillarning boshlarida asosiy e'tibor Mirzacho'lni o'zlashtirishga qaratildi va bu maqsadga erishish uchun yangi yerlarga 280 ta ekskavator, 270 ta skreper, 297 ta buldozer, 1600 ta yuk mashinalari, 200 ta traktor va katta miqdorda boshqa texnikalar olib kelindi. 1964 yili Mirzacho'lda mehnat qilgan har 20 ming kishidan 4 mingini mexanizatorlar tashkil qilardi¹³. Shuni ta'kidlash lozimki, "paxta yakkahokimligi" tufayli kelib chiqqan ayollar va qishloq aholisi o'rtasidagi kamqonlik, g'o'zaga sepilgan zaharli moddalar bilan kasallanish o'zbek irsiyati uchun katta xavf ekanligini mas'ul hokimiyat oxirigacha tushunib yetmadi.

Fan va texnika yutuqlarini qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etish, umuman olganda ijobiy hodisa. Biroq paxtachilikda zaharli ximikatlar (butefos, merkaptoxos va hokazo)dan haddan tashqari ko'p foydalanish, ularni saqlash va ishlatishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yish o'ta salbiy oqibatlariga olib keldi. Tuproq, suv va havoning zaharlanishi, g'alla va sabzavot ekinlariga, hatto chorva mollariga ham o'zining zararli ta'sirini o'tkazdi. Bular barchasi biologik va ekologik oqibatlardan tashqari jiddiy ijtimoiy oqibatlariga ham olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayoni 70-yillarnng ikkinchi yarmiga kelib yakunlandi. Keyinchalik asosiy e'tibor Jizzax cho'lini o'zlashtirishga qaratildi. Qaqrab yotgan cho'lda qudratli nasoslar orqali suv chiqarilib, kanallar qazildi, o'nlab yangi xo'jaliklar barpo etildi. Irrigasiya qurilishi, suv inshootlarini qurish keyingi davrlarda ham rivojlana bordi. Cho'llarni o'zlashtirishning yangi bosqichida ilgari amal qilib kelgan usul, ya'ni asosiy e'tiborni suv xo'jaligiga qaratishdan, endi cho'l zonalarida rivojlangan paxtachilik rayonlarini tashkil etishga qaratildi.

¹⁰ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: "О'ZBEKISTON", 2019. 527-6.

¹¹ САНИИРИ архиви, мелиорация бўлимининг 1961 йилги ҳисоботи, 23-варак.

¹² Узгипроводхоз архиви, инв-782,32-варак.

¹³ "Правда Востока". 24 августа 1964 г.

